

INGLIZ TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH BORASIDA METODIK TAVSIYA

Tursunova Dildoraxon Abdurashidovna

Namangan viloyati Uchqo`rg`on tumani

41-umumta`lim maktabining ingliz tili fani o`qituvchisi.

E-mail: g.Tursunova@Dildoraxon.uz

Anotatsiya

Ushbu metodik tavsiyada o`quvchilarni darsga qiziqarli jalb etish, darsni samaradorligini oshirish, ingliz tili fanida o`quvchining so`z boyliklarini kengaytirish va eslab qolishlarini osonlashtirish, hamda nofaol o`quvchilarni ham qiziqarli usullardan foydalanib, ingliz tili darsiga qiziqtirish borasida eng qiziqarli metodlar yoritilgan. Bu metodik tavsiyadan foydalanib, barcha ingliz tili o`qituvchilari o`z ijodkorligi bilan yondoshib boyitishi yoki kengaytirib dars jarayonida foydalanishlari mumkin.

Kalit so`zlar. “Qutadg`u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) asari, globallashuv, “Baliq ovi” o`yini, “Topqirlik”, “Bo`g`in”, “Xotira mashqi”, “Mo`jizalar maydonchasi”, “Maqol”, “So`zdan so`z yasash”, “Ustunchalar”, hamda “Kim g`olib?” o`yinlari.



Yurtimizning barqaror taraqqiyotida, xalqaro maydondagi obro-e`tiborining yanada yuksalishida, amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligida yosh avlodga berilayotgan e`tibor muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yoshlar ta`lim-tarbiyasi, ularning ma`naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlar tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olingan.

Tarixan qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan keng ko`lamli ishlar qatorida yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko`tarilib, ma`naviy va jismonan barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan bir qator dasturlar qabul qilindi.

Haqiqatdan ham hozirgi avj olayotgan globallashuv jarayonida mamlakatimiz o`z o`rnini topishida, yangi davlatchilik asoslari barpo etish yo`lida amalga oshirayotgan tub o`zgarishlarda davlat, birinchi navbatda, shubhasiz, yoshlarga tayanadi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo`lidan ma`lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo`lishi o`sha davlatda yoshlar ta`lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e`tibor darajasiga bog`liq”, - deb e`tirof etadilar.[1]

O'rta asrning eng ulug` turkiy shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) asarida:

Bilimni buyuk, o`quvni ulug` bil,
Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug`laydi.
Zakovat qayerda bo`lsa, ulug`lik bo`ladi,
Bilim kimda bo`lsa, buyuklik bo`ladi – deya ta`kidlaganlar.

Shuning uchun ham mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq xalq ta`limi masalasi ustuvor yo`nalishga aylandi. "Mustaqillik mактабдан boshlanadi" degan fikr-mulohazalar keng tarqaldi[2]. Chunki Fransuz yozuvchisi, jamoat arbobi Anri Barbyus ta`riflaganidek: "Maktab – voyaga yetayotgan yosh avlod tafakkurining ustaxonasidir; agar kelajakni qo`ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo`lda mustahkam tutmog`ing lozim."

Bugun mamlakatimiz kun sayin siyosiy-madaniy, ijtimoi-iqtisodiy va boshqa sohalarda tobora rivojlanib bormoqda. Jahonning ko`plab davlatlari bilan o`zaro aloqalar o`rnatilmoqda, bu esa yoshlarimizdan chet tillarni chuqur bilishlarini taqozo etadi.

Barchamizga ma`lumki, ingliz tili jahon tillaridan biri hisoblanadi. Yer yuzida tillar tarqalishi bo`yicha yuqori o`rinni egallaydi. Bu tilni jahonning yuzdan ortiq mamlakatlarida o`rganishadi. Uni chet tili sifatida dunyo aholisining har to`rtinchini kishisi o`rganadi.

Bizning yurtimizda ham ingliz tilini o`rganishga, til bilish barcha muaffaqqiyatlarning garovi ekanligi inobatga olinib, yosh avlodning ma`naviy yetuk bo`lishlari uchun ingliz tili faniga yanada ahamiyat berilmoda. Dono xalqimizda shunday ulug` bir naql bor: "Yoshlikda olingan bilim, toshga o`yilgan naqsh kabidir." Darhaqiqat, o`quvchining boshlang`ich ilm maskani-maktabda egallagan bilimlari kelajak hayotida ko`p as qotadi. Shunday ekan, o`quvchilar maktabda chet tilini puxta o`rganishlari uchun ingliz tili fanini o`qitishni samarali va qiziqarli tashkil etish, interfaol usullardan va turli qiziqarli, har bir yosh uchun mo`njallangan metodlardan va adabiyotlardan keng foydalanish juda muhim. Ayniqsa, o`zbek tilida ta`lim beriluvchi maktablarda tahsil oluvchi o`quvchilarning ingliz tilida erkin muloqotga kirisha olishida ingliz tili fani o`qituvchilaridan bolaning to`g`ri ohang bilan talaffuz qilishini o`rgatishni ham talab qiladi.

Ingliz fizik olimi, pedagog, Ernest Rutherford ta`biri bilan aytganda: Maktab o`z sistemasida mujassamlangan asosiy predmet va prinsiplariga ko`ra, xalqlar va davlatlar turmushi va taqdirini belgilashda bag`oyat buyuk kuchdir.



Shuning uchun ta`lim islohotlari - bu sohaning barcha yo`nalishlari singari yurtimizdagи barcha umumta`lim maktablari tizimida yirik o`zgarishlar va yangilanishlarga sabab bo`ldi. Chunki “maktab yosh avlodni o`z iste`dodini namoyish qilishida, to`g`ri kasb tanlashida eng muhim maskan” hisoblanadi,[3]

Har bir bolada bir daho yashirin. Uning kim bo`lib voyaga yetishi esa kattalarning munosabati, tarbiyasi mahsulidir. O`quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish – har bir o`qituvchining oldidagi mas`uliyatli vazifadir. Shuning uchun ham muallimlik – mas`uliyatli kasb hisoblanadi. Zero, o`qituvchi – inson ruhining injeneridir.

O`z fanini sevuvchi o`qituvchi darsni tashkil etishda o`quvchilar qiziqishini oshirish va darslarni jonlantirish uchun turli metod va o`yinlardan foydalanadi. Chunki bolalarni o`qitishdagi bosh masala ularga nima o`qitilayotgani emas, balki qanday o`rgitilayotganligidir. Bolaga yaxshi va mohirona uqtirilgan odatdagi kunddalik narsalar uning tushunchasiga mos tushmaydigan, g`aliz izohlangan yuksak haqiqatlardan ko`ra kelajakda unga yuz karra ko`proq foyda beradi.[4]

O`yin asosida olib borilgan mavzular esa xotirada uzoq muddatga saqlanib qoladi. Qolaversa, o`quvchilar ham noodatiy darslarni yaxshi ko`radilar. Bu metodlar orqali darsga faol ishtirok etmaydigan o`quvchini ham oson jalb qilish mumkin.

Quyida biz ingliz tili fanida (boshqa fanlarda ham) foydalanishimiz mumkin bo`lgan metodlardan ayrimlarini izohlab beraman. Bu o`yinlardan barcha o`qituvchilar o`z ijodkorligi bilan yondoshib boyitishi, kengaytitib dars jarayonida foydalanishlari mumkin. Bu metodlar ayniqsa, maktablarda rasmiy davlat tilidan boshqa tillarni o`rgatishda as qotadi, o`quvchilarni so`z boyligini oshiradi, nutqini shakllantiradi, ifodali va tezroq o`qishni osonlashtiradi.

1. “Baliq ovi” o`yini.

Doskaning bir tomoniga dengiz rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasmi chiziladi. Dengilda baliqlar (o`zbek tilidagi so`z yoki gap) bo`ladi. O`quvchi dengizdagи baliqlardan birini tutib unga ingliz tilida tarjimasi bilan javob beradi. Javob to`g`ri bo`lsa, baliqni akvariumga, xato bo`lsa yana dengizga qo`yib yuboradi.

Bu metod, asosan, so`z boyligini oshirishga yoki uyga berilgan so`zlarni yodlaganini tekshirishda foydalaniladi.

2. “Xotira mashqi” o`yini.

Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa, birinchi tanishuv darsida qo`llash mumkin bo`lgan o`yin. O`quvchi o`z ismini yoki yonidagi do`stini ismini aytadi yoki biror narsani nomini aytadi va shu ism yoki so`z bilan boshlanuvchi inglizcha biror so`zni yoki ingliz adabiyotidagi biror adib nomini aytadi. Masalan,



Bahrom-Bendjamin Franklin, Tohir-Tomas More, Hilola-hilarious (hushchaqchaq), Feruza-fine (ajoyib, yaxshi) kabi.

3. “Maqol yoki she`r” o`yini.

O`quvchilarni rag`batlantirish va maqollarni, she`rlarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o`tkaziladi. O`qituvchi o`yin shartini aytmagan holda talabgor o`quvchilarni doska oldiga taklif etadi. O`quvchilar istaganicha chiqishlari mumkin. O`qituvchi birinchi o`quvchiga kitob yoki qiziqarli biror buyum (karobka, koptok...) beradi. O`quvchi berilgan topshiriq sharti bo`yicha maqol yoki biror mavzuga oid inglizcha-o`zbekcha so`z, she`r aytilib uni sherigiga uzatadi. Topshiriqni bajarolmagan yoki aytilgan so`z yoki maqolni takrorlagan o`quvchi o`rniga o`tiradi. O`yin bitta o`quvchi qolgunicha davom ettiriladi. Oxirgi qolgan o`quvchi g`olib bo`lish uchun takrorlamagan holda topshiriqni bajaradi va g`olib bo`ladi.

4. “So`zdan so`z yasash” o`yini.

Bu o`yin o`quvchilarni so`z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Yozuv taxtasiga o`qituvchi tomonidan ingliz tilida bir so`z yozib qo`yiladi. Shundan so`ng o`qituvchi ma`lum vaqt davomida ana shu so`z harflaridan foydalangan holda boshqa so`z yasashlarini aytadi. Belgilangan vaqtda qaysi o`quvchi ko`proq so`z yoza olsa, shu o`quvchi g`olib bo`ladi.

5. “Ustunchalar” o`yini.

Yaqin o`tgan mavzularni qayta xotiralash va mustahkamlash, chaqqonlik va tez fikrlay olish qobiliyatlarini o`stirish uchun ayni qo`l keluvchi o`yindir. O`quvchi daftar varog`ini 2,3,4 yoki 5 ustunga bo`lishadi va ustunlar tepasiga mavzu nomi yoziladi. Har bir ustunchaga belgilashingizga qarab 5 yoki 7 tadan mavzuga oid atama yoki so`zni tarjimasi bilan yozishi kerak bo`ladi. Birinchi bo`lib bo`lgan uch o`quvchini yozuv taxtasiga taklif qilasiz. Ular barchasini to`g`ri va imloviy tomonidan ham bexato bajarishgan bo`lsa, qo`shimcha baho bilan rag`batlantiriladi.

6. “Kim g`olib?” o`yini.

Ushbu o`yin o`quvchilarni o`tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga undaydi. Asosiysi, o`quvchilar g`oliblik uchun hamda ko`proq bilim olish uchun kurashadilar. O`quvchilarni ikki guruhga bo`lasiz va nomlaysiz. Ularga o`tilgan mavzu yuzasidan ingliz tilida ketma-ket ma`lumotlar yoki bir-birlarini takrorlamagan holda lug`atlar aytishini aytasiz va tayyorgarlik ko`rishlari uchun ma`lum vaqt ajratasiz. Qaysi guruh a`zolari mavzu yuzasidan ko`proq va mazmunli ma`lumotlar aytgan bo`lsa g`olib hisoblanadi.



7. “Bo`g`in” o`yini

O`qituvchi sinf taxtasiga bir bo`g`in yozadi. O`quvchilar so`z boyliklaridan foydalangan holda shu bo`g`in bilan boshlanuvchi so`zlardan yozadilar. Masalan, file, film, fire, finish; bo-board, book, boy, body; da-dancer, dad, dagger, dale kabi.

8. “Topqirlik” o`yini.

Bir necha o`quvchi doska oldiga chiqadi. Birinchi o`quvchi ingliz tilidagi biror so`zni aytadi, ikkinchi o`quvchi shu so`zning tugagan harfi bilan boshlanuvchi ingliz tilidagi so`zni aytadi. O`yin shu tariqa davom etadi. Qaysi o`quvchi topa olmas yoki takrorlab aytса, o`yinni tark etadi. O`yin bir kishi qolgunicha davom etadi. O`quvchilar yoshiga qarab aytildigan so`zlar toifasini chegaralash mumkin, ya`ni faqat ot turkumiga oid so`zlar. Masalan, faqat ot so`z turkumiga oid, sifat, ravish so`z turkumlariga oid so`zlardan iborat bo`lishi mumkin. Bunda o`quvchining, avvalo, so`z boyligi oshadi, qolaversa, so`zlarni turkumlashni o`rganadi.

9. “Kun va tun” o`yini.

O`qituvchi sinf taxtasiga bir necha so`zlarni yozadi. O`quvchilarga so`zlarni o`qib olishni, keyin esa ko`zlarini yumib turishini aytadi. O`quvchilar ko`zlarini yumganida, o`qituvchi sinf taxtasiga yozilgan so`zlarning birini harfini o`zgartirib yozadi va ko`zlarini ochib qaysi so`z o`zgarganligini so`raydi. Masalan, keep-keel, lack-lacy, cheer-cheek, kabi.

10. “Qadam” o`yini.

O`qituvchi o`z bilimiga ishongan bir necha o`quvchilarni taklif etadi. Ular bir qator bo`lib o`qituvchi tomonga qarab turib olishadi. Ularga tezkor va javobi oddiy savollar berishadi. Qaysi o`quvchi to`rt qadam yurib o`qituvchiga yaqinlashgunicha o`yin davom etadi va shu bilimdon o`quvchi g`olib hisoblanadi.

Boshqa usullar:

Albatta, darslarni jonlantirish, lirk chekinish qilish maqsadida faqat boshqotirmali topshiriqlar emas, boshqa usullardan ham foydalanish mumkin. Vatan, fasllar, ota-on, do`stlik va boshqa mavzularga oid terminlar, she`rlar, maqollar so`rash, adib yoki davlat arboblarining rasmini ko`rsatib ingliz tilida u haqida ma`lumot aytirish, ingliz tilida “tez aytish”lar uyushtirish kabi turli xil metodlardan foydalanib darsni qiziqarli va eslab qolishga oson tarzda o`tkazish mumkin.

Maktabda shunday fikr bor: agar o`quvchilar jim o`tirib, darsni tinglasa, demak, hamma narsa joyida. Ammo dars samaradorligi sukunat bilan emas, balki ta`lim natijalarini o`zlashtirish bilan belgilanadi. Agar dars oxriga qadar hech kim hech narsani eslab qololmagan bo`lsa, sinfda to`liq sukunatdan nima foyda bor?



Intizom shunchaki jim o`tirish emas. Intizomni to`gri tashkil etish muaffaqqiyatlari darsning 40%ni tashkil etadi. Shuning uchun; Svettafor qoidasini o`rnating.

Bu qoida sinfdagi tartib-intizom uchun ajoyib g`oya. Qizil chiroq faqat o`qituvchi gapirayotgani yoki individual topshiriq bajarilayotganligini anglatadi. Sariq rang muloqot va navbat bilan javob berishni bildiradi. Yashil chiroq sind uchun haqiqiy muloqot erkinligidan xabar beradi. Aar bu qoidani o`qituvchining o`zi unutib qo`ymasa, 5-6 darsdan so`ng o`quvchilar uning savollariga bir necha karra tezroq javob berishadi.

Zamonaviy ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri – har bir darsni zamon va kelajak talabi asosida tashkil etishdir. Dars – muqaddas! O`quvchilarni dunyoqarashi keng, tafakkuri teran, yuksak salohiyatli, yuqori saviyali bo`lishida maktabdek ulug` maskanning o`rni beqiyos. Bu jarayonni doimiy ravishda o`tmish tajribasi va zamonaviy taraqqiyot talabi bilan uyg`un holda, doimiy takomillashtirib borish o`qituvchi uchun muhim vazifalardan biridir. Chunki, “Yoshlikda olingen bilim, toshga o`yilgan naqshdir” degan qimmatli naql bor dono xalqimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqidan
2. Abdullayeva K. Milliy boshlang`ich maktab qanday bo`ladi? // Ma`rifat.2016. 4-soni
3. Пора добрых перемен // Учитель Узбекистана. 2019.04.
4. Nikolay Pirogov. Педагогический сочинениею. М.1957.

